



YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM JARAYONINI ISLOH QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti
Nasrulloeva Sabina Narzulloevna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda ta'lim jarayonini isloh qilishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Unda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari, kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, ta'limni raqamlashtirish jarayonlari hamda pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar ta'lim islohotlarining samaradorligi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Xulosa sifatida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish inson kapitalini yuksaltirishning muhim omili ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim islohoti, Yangi O'zbekiston, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, pedagogik innovatsiya.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations of reforming the education process in New Uzbekistan. It highlights the priority directions of educational modernization, the importance of the competency-based approach, the digitalization of education, and the development of teachers' professional capacity. Systemic and comparative analysis methods were used in the study. The results show that the effectiveness of educational reforms is closely related to the implementation of innovative pedagogical technologies and the development of the digital learning environment. The paper concludes that modernization of the education system is an important factor in enhancing human capital.*



Keywords: education reform, New Uzbekistan, competency-based approach, digital education, pedagogical innovation.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы реформирования образовательного процесса в Новом Узбекистане. Рассматриваются приоритетные направления модернизации образования, значение компетентностного подхода, процессы цифровизации образования, а также развитие профессионального потенциала педагогических кадров. В исследовании использованы системный и сравнительный методы анализа. Результаты показывают, что эффективность образовательных реформ тесно связана с внедрением инновационных педагогических технологий и развитием цифровой образовательной среды. Сделан вывод о том, что модернизация системы образования является важным фактором повышения человеческого капитала.

Ключевые слова: реформа образования, Новый Узбекистан, компетентностный подход, цифровое образование, педагогическая инновация.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda oliy pedagogik ta'lim qamrovini kengaytirish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan bir qator oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi, xorijiy davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etildi va sohaga oid mustahkam huquqiy-me'yoriy baza shakllantirildi. Mazkur o'zgarishlar pedagogika yo'nalishida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida sifat ko'rsatkichlarini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish hamda ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, pedagogika oliygohlariga kirishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortgan. Bu esa amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy samarasini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan



qaror va farmonlar oliy pedagogik ta'limni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan, xorijiy tillarni biladigan professional kadrlar tayyorlash ustuvor vazifaga aylandi. Pedagog kasbining nufuzi oshib borayotgani, rag'batlantirish mexanizmlarining takomillashuvi yoshlarning ushbu sohaga qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Iqtidorli va kasbga moyil yoshlarni aniqlash, ularni maqsadli tayyorlash va uzluksiz qo'llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Bu jarayon pedagoglardan yangicha yondashuv va yuqori mas'uliyatni talab etadi.

Pedagogik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv reja va dasturlar ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqilmoqda, innovatsion o'quv-me'yoriy hujjatlar va zamonaviy ta'lim resurslari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, poytaxtdagi tayanch pedagogika oliygohida yaratilgan resurslar asosida hududiy pedagogika institutlari bilan hamkorlik kuchaytirilib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali o'qitish sifatini oshirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bugungi kunning ustuvor strategik maqsadlaridan biridir. Bitiruvchilarning amaliyot o'tagan ta'lim muassasalarida ish bilan ta'minlanishi buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik samaradorligidan dalolat beradi. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron hujjat aylanishi, masofaviy ta'lim, onlayn baholash tizimlarini qo'llash orqali zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy pedagogik ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadida maxsus assotsiatsiya tashkil etilib, ta'lim sifatini oshirish hamda xalqaro reytinglarga kirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, xalqaro grantlar doirasida pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim samaradorligini baholash tizimini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari kengayib, qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalar va akademik almashinuvlar soni ortib



bormoqda. So‘nggi yillarda oliy ta’limga qabul kvotalarining oshirilishi natijasida talabalar soni sezilarli ko‘paydi. Ilmiy salohiyatni mustahkamlash maqsadida doktorantura tizimi kengaytirildi, ilmiy tadqiqotlar faollashdi, xalqaro ilmiy bazalarda chop etilayotgan maqolalar soni ortdi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun ta’lim sohasidagi munosabatlarni zamonaviy talablar asosida tartibga solib, masofaviy, dual va inklyuziv ta’lim shakllarini aniq belgilab berdi. Qonun davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish tartibini, litsenziyalash jarayonini ham huquqiy jihatdan mustahkamladi. Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, qo‘shma fakultet va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, ikki tomonlama diplom dasturlarini yo‘lga qo‘yish, akademik almashinuvni kengaytirish kabi yo‘nalishlar ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda ichki va tashqi monitoring mexanizmlari joriy etilib, shaffoflik va xolislik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Ichki baholash natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha aniq choralar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, chuqur bilim va yuqori kasbiy ko‘nikmalarni egallash orqali yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish har birimizning muhim vazifamizdir.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 1-ilovasi, 9- bandi.
2. <https://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak->



[maqsadmohiyat-va-afzallik](#)

3. <https://kun.uz/news/2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul-kelayotgan-oquvyilida-talabalarni-nimalar-kutmoqda>

4.O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi@lytalm Muassasalarida BCIS KreditModul Tizimi: